

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
JIZZAX VILOYATI XALQ TA’LIMI XODIMLARINI QAYTA TAYYORLASH VA
ULARNING MALAKASINI OSHIRISH HUDUDIIY MARKAZI**

**“TA’LIMDA KREATIV YONDASHUV YO‘LLARINI
RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI”**

*mavzudagi respublika ilmiy –amaliy
On Line konferensiyasi materiallari*

Jizzax 2021-yil

“Ta’limda kreativ yondashuv yo’llarini rivojlantirishning dolzarb masalalari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy ON-LINE konferensiya materiallari Jizzax: 2021 yil 273 bet

O‘zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi Ta’lim to‘g‘risidagi qonuni O‘zbekiston Respublikasi prezidentining 2020- 6- noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim tarbiya va ilm fan sohalarini rivojlantirish chora –tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6108 farmoni, “Ta’lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4884-qarorida ko‘rsatib o‘tilgan va belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida mualliflar o‘z maqolalarida **“Ta’limda kreativ yondashuv yo’llarini rivojlantirishning dolzarb masalalari”** mavzusiga oid o‘z fikr va mulohazalarini ushbu respublika ilmiy-amaliy ON-LINE konferensiyasi to‘plamida bayon qilishgan.

Tahrir hay’ati

A.Sh.Xolmuroov	Iqtisod fanlari nomzodi, Jizzax viloyati XTXQTMOHM direktori
Sh.D.Abdurashidov	Jizzax viloyati XTXQTMOHM direktor o‘rinbosari
R.Q.Karimov	Jizzax viloyat “Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasida dotsenti
M.A.Tilakova	Jizzax viloyat “Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasida muduri. Pedagogika fanlar bo‘yicha falsafa doktori(PhD)
Sh.H.Haydarov	Jizzax viloyat “Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasida o‘qituvchisi
M.G`.Mo`minjonova	Jizzax viloyat “Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasida katta o‘qituvchisi
N.Ya Qurbonov	Jizzax viloyat “Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasida katta o‘qituvchisi
Ch.Yunusova	Jizzax viloyat “Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasida o‘qituvchisi
Texnik muharrir G.T.Hamrayeva	Jizzax viloyat “Pedagogika va psixologiya, ta’lim texnologiyalari” kafedrasida kabinet mudirasi

To‘plamda o‘rin olgan maqolalarning saviyasi sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar masuldirlar.

To‘plam materiallari Jizzax viloyati XTXQTMO Hududiy markazi ilmiy metodik kengashining 2021 yil ____ sentabrdagi _____ sonli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

инсонни тарбиялашга куч сарфлаш муҳимроқми ёки ҳар бир болада яширинган мўъжизавий имкониятларни уйғотиб, уларнинг замонамизга муносиб етук инсон бўлиб тарбияланишини ўйлаш зарурми? Назаримизда саволнинг жавоби ҳар кимга аён дир. Энг муҳими - вундеркинд ва креативлик психологиясини тўғри тушуниш ва унга тўғри тарбия беришда.

Ҳаммаси катталарнинг болаларга муносабатидан бошланади. Фарзандидан фавқуллода доно гап-сўз эшитиш ҳар қандай ота-онани ҳаяжонга солади, тўлқинлантиради, шундай дақиқада кўпинча улар бунинг оддий ҳол эканлигини, ўғли ёки қизининг тенгқурлари ҳам шундай фикрлай олишини ҳаёлларига келтиришмайди. Кўпчилик ота-оналар “Ҳозирги замоннинг болалари-да!” деб кўя қолади, айримлари эса ҳамма қатори ўсаётган боладан вундеркинд ясайди. Кейин, унга бўлган эътибор ортади Боланинг ҳар бир гап сўзи мактовлар билан тақдирланади, бу ўз-ўзидан боланинг эътибор талаб ўртоқларидан ажралиб туришига мойил бўлишига олиб келади. Кўп ўтмай ота-онани лол қолдирган “Креатив” учқунлари эса сўниб улгуради.

Демоқчимизки, боладек вундеркинд даражасидаги креативликни белгилаш осон эмас уни педагог, психолог сингари мутахассислар кўриги ва синовидан ўтказгачгина аниқлаш, аниқлангач эса улар ёрдамида тарбиялаш лозим.

Қолаверса, ҳамма сингари қобилият эгаларигина эмас, хатто тўғри маънодаги вундеркиндни ҳам кўз-кўз қилишдан, кўкларга кўтаришдан эҳтиёт бўлиш керак. Чунки бундай болалар улғайганда буюк шахс бўлиб, етишганига қанчалик мисол кўп бўлса, дастлабки ишонч ва умидларни пучга чиқарган вундеркиндлар ҳам ундан оз эмас. Алоҳида қобилиятли болаларни махсус мактабларда ўқитиш усулига П. Капица, А. Леонтьев сингари номлар оламга машҳур рус олимлари қарши фикр билдиришганда худди шуни- креативлар тарбиясини назарда тутишган эди. Шундай экан ғаройиб креатив эгаси бўлганлиги туфайли гўдакни катталар қаторига қўшиб қўймаслик, таниқли рус психолог олими Лев Вигоцкийнинг таъбири билан айтганда, “Болаларни уларга қайта насиб этмайдиган болалик нашидасидан маҳрум қилмаслик керак”. Энг маъқули - ҳар бир оилада вояга етаётган бола тарбиясига, унинг умумий савиясини оширишига эътибор бериш, бола учун зарур муҳит яратишдир. Ана шундагина ҳар бир оилада халқ, ватан фахрига айланажак катта креатив қобилиятлилар етишиб чиқаверади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Х. Дустмухамедов “Миры литературного перевода” II том Москва 6-8 сентябрь 2018 г.
2. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х. Сайфуров Д.М. Тўраев А.Б. Инновацион таълим технологиялари. – Т.: “Сано стандарт” нашриёти, 2015

Gulchehra Temurova
JDPI Maxsus pedagogika
kafedrasi o'qituvchisi

KOXLEAR IMPLANTLI BOLALAR BILAN OLIV BORILADIGAN LOGOPEDIK ISHLASH TIZIMI

Hozirgi kunda qator mamlakatlarda istiqomat qiluvchi ko'pgina insonlar eshitishni koxlear implantant yordamida tiklab borishlari tobora keng tarqalib bormoqda.

Hozirgi davrda eshitishida turlicha nuqsonlari bo'lgan bolalar va kattalarning eshitish sezgilarini yaxshilash uchun turli eshitish apparatlaridan foydalanilmoqda. Biroq hamma apparatlar

ham foydalanish jarayonida nutqning aynan eshitish sezgilariga ta'sirini yaxshilay oladi, deya olmaymiz.

Ayrim eshitish apparatlari turli sensonevral karlikning texnik, fiziologik va patofiziologik sabablari bilan eshita olmaydigan kishilarning eshitishiga qisman, ayrimlariga esa umuman ta'sir qilmaydi.

Kar va zaif eshituvchi bolalar ta'lim tarbiyasiga oid nazariy ma'lumotlarning tahlili asosida quyidagi hulosalarni shakllantirdik:

kar va zaif eshituvchi bolalarning ta'limi va tarbiyasini tashkil etishda to'g'ri tashxisning ahamiyati kattadir;

eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqini rivojlantirishda eshitish qoldig'idan foydalanishga ustuvorlik berish zarur. Bu jarayonda eshitish sezgisiga ta'sirning turli vositalarini bolaning fiziologik va psixiologik hususiyatlarini inobatga olgan holda tanlash muhimdir;

kar va zaif eshituvchi bolalarda so'lashuv nutqini rivojlantirishning eng optimal yo'li sifatida nutqning og'zaki, yozma daktil va imo ishora shaklidan o'rinli foydalanish talab etiladi;


kar va zaif eshituvchi bolalar bilan ishlashda ilk davrdan boshlab, ham eshitish, ham nutq ustida ishlashni parallel olib borish lozim;

kar va zaif eshituvchi bolalarning eshitish idroki va nutqini rivojlantirishda ovoz kuchaytirib beruvchi apparatlarning shu jumladan eshitishni tiklashga mo'ljallangan koxlear implantning imkoniyatlari kattadir.

Sanab o'tilgan kar va zaif eshituvchi bolalar bilan olib boriluvchi korreksion – pedagogik va rivojlantiruvchi vazifalarni bajarishga mo'ljallangan ishlar samaradorligini intensiv ta'minlash vositasi sifatida koxlear implant tan olinmoqda.

Oxirgi o'n besh yillik davr mobaynida surdotexnika va surdopedagogika fanlarining rivojlanishi hamda innovatsion texnologiyalarning amaliyotda qo'llanilishi eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalar uchun yangi – ko'p kanalli koxlear implantatsiya yordamida eshitishni tiklash vositasidan foydalanishga ehtiyojni kuchaytirdi. Koxlear implantatsiya quyidagi maqsadlarni ko'zlaydi:

- shovqin sharoitida nutqning tushunarligi 10-12%ga oshirish;
- fazoda tovush manbaining lokalizatsiyasini yaxshilash;
- reverberatsiya sharoitida, bir necha so'zlashuvchilar bilan suhbatlashishda nutqning tushunarligi orttirish;
- turli tovushlarni ajratishga va gapirishga o'rgatish, lug'at boyligini oshirish.



Koxlear implantatsiyaning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Bolaning rovojlantirishidagi me'yordan chetga chiqishlarni erta tashhis qilish.
2. Eshitish sezgisini tiklash.
3. Eshitish idrokini rivojlantirish hisobiga nutqni rivojlantirish.
4. Sog'lom insonlar orasida uyg'unlashish imkonini ta'minlash.


Koxlear implantatsiyaning vazifalari.

I.V Korolyova fikricha: “Qanchalik koxlear implantatsiya erta qilinsa, shunchalik natijalar yaxshi bo'ladi”.

Koxlear implantatsiya – deganda, ichki quloqqa eshitish nervining afferent tolalarini bevosita elektrostimulyatsiya qilish yo'li bilan eshitish sezgisini tiklash maqsadida elektrodlar tizimini joylash tushuniladi.

E. V. Mironovanning ta'kidlashicha: “Past eshituvchi kishining o'rta qulog'ini operatsnutqni rivojlantiradiya qilganda, shilliq o'ramasiga ta'minot blokiga ulangan elektrod tasodifan tegib ketadi va mijoz o'zining qulog'ini avvalgidan ko'ra yaxshiroq eshityapti, deb his qiladi”.

Koxlear implantatsiya tizimi



Koxlear implantatsiya tizimi.

Koxlear implantatsiyaning tarixi qaysi davlatlarda qanday tajribalar yo'lga qo'yilganligi hususidagi ma'lumotlar ilovada keltiriladi.



Sensonevral karlik ichki quloqning, ya'ni tolali to'qimalarning zararlanishi bilan kechadi. Biroq sensor to'qimalarning ko'pgina qismi zararlanishiga qaramay, ko'pgina bunday kasallarda eshitish nervining tolalari saqlangan bo'ladi. Bu tolalar elektr toki bilan bevosita harakatga keltirilganda miyaga eshitish sezgilarini paydo bo'lishini ta'minlovchi signal berishi mumkin. Aynan shu jarayonga koxlear implantatsiya prinsipi asoslangan bo'lib, bu esa o'z navbatida sun'iy ichki quloq demakdir.

Bugungi kunda total karlik va sensonevral eshitmaslikning yuqori darajasidagi kishilar uchun koxlear implantant eshitish protezining real vositasi bo'lib bormoqda. Eng ko'p tarqalgan koxlear implantant sistemalaridan biri bu- “Cochlear” firmasi tomonidan tarqatilayotgan 22 kanalli “Nucleus” koxlear implantanti hisoblanadi.

Turli kishilarda eshitish nervining elektr stimulyatsiyasi natijasida turlicha (his) sezgilar bo'lishi mumkin. Shuning uchun, bir kishida turli kanallarni stimulyatsiya qilishda yoki bir kanalni turli kishilarda stimulyatsiya qilishda stimulyatsiya qiluvchi tokning turlicha kuchlaridan foydalanish zarur. Bundan tashqari, aynan bir kishining turli kanallarning stimulyatsiya qilinishida ovozning turli tonlarini individual ajratish qobiliyati mavjud. Shu maqsadda nutq protsessorida nozik sozlama ko'zda tutilgan bo'lib, mijozning elektr stimolni qabul qilishiga qarab individual holatda sozlanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan koxlear implant moslamasining fiziko – texnik imkoniyatlari orqali eshitish sezgisini tiklash insonga quyidagi imkoniyatlarni yaratadi.

- me'yoriy eshitishga nisbatan 40 dB gacha bo'lgan eshitish sezgisi tiklanadi;
- atrofda uchraydigan kundalik nonutqiy tovushlarni eshitib farqlash darajasi oshadi;
- nutqiy tovushlarni eshitish orqali insonning eshituvchilar olamiga samarali kirib borishi ta'minlanadi;
- koxlear implantli bolalar va kattalar eshitish evaziga suhbatdoshining nutqini tushuna boshlaydilar. Ushbu sanab o'tilgan KI imkoniyatlari quyida sxemada keltirildi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ayupova M.Yu. Logopediya. – T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2007.
2. И. В. Королева. Кохлеарная имплантация и слухоречевая реабилитация глухих детей и взрослых.- Санкт-Петербург.: Каро. 2009

3. Логопедия: учебник для дефектологических факультетов педагогических вузов /Л. С. Волкова, Р. И. Лалаева, Е. М. Мастюкова и др.; под ред. Л. С. Волковой. М.: Владос, 2009. 703 с. (3)
4. Temurova, G. (2020). THE ROLE OF LEGALITIES AND PRINCIPLES IN THE DEVELOPMENT OF ORAL SPEECH OF WEAK AUDITORY LEARNERS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(91)*. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6842
5. Gulchexra Temurova, МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ ЭШИТИШИДА НУҚСОНИ БЎЛГАН БОЛАЛАРНИНГ УМУМИЙ МОТОРИКАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ, *Архив Научных Публикаций JSPI: 2020: Архив №91 (science.i-edu.uz, jspi.uz)*
6. Temurova, G. (2020). мулоқот эҳтиёжининг асоси. *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(69)*. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6278
7. Temurova, G. (2020). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ ЭШИТИШИДА НУҚСОНИ БЎЛГАН БОЛАЛАРНИНГ УМУМИЙ МОТОРИКАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ. *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(91)*. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6843
8. Temurova, G. (2020). DEVELOPING THE SPEECH OF HEARINGIMPAIRED PUPILS IN PRIMARY SCHOOL BASED ON GAME TECHNOLOGY. *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(70)*. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6271
9. Temurova, G. (2020). O‘YIN – ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARNING NUTQIY QOBILİYATLARINI FAOLLASHTIRISH OMILI SIFATIDA. *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(92)*. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6792
10. Temurova, G. (2020). ИМКОНИАТИ ЧЕКЛАНГАН БОЛАЛАРНИ СОҒЛОМЛАШТИРИШДА ЖИСМОНИЙ МАШҚЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. *Архив Научных Публикаций JSPI, 1(91)*. извлечено от https://science.i-edu.uz/index.php/archive_jspi/article/view/6844

*Алибоев Тургун Чиндалиевич
ЖДПИ, Технологик таълим
кафедраси катта ўқитувчиси, PhD.*

ЎҚУВЧИЛАРДА КРЕАТИВЛИК СИФАТЛАРИНИ БАҲОЛОВЧИ МЕЗОН ВА ДАРАЖА КЎРСАТКИЧЛАРИ

Бугунги кунда шахсни шакллантириш, ривожлантириш ва ижтимоийлаштириш муаммоларини тадқиқ этувчи соҳалар – социология, педагогика ҳамда психологияда “ижодкорлик” тушунчаси билан бир қаторда “креативлик” атамаси ҳам қўлланилиб, баркамолликни ифодаловчи асосий сифатлар тарзида ифода этилмоқда.

Шахсда креативликни ривожлантиришда самарали бўлган омиллар қаторида яна куйидагиларни эътироф этиш мумкин: кенг қўламдаги, шу жумладан, катта ёшли ижодкорлар билан мулоқот; тақлид қилишга имкон берувчи образ сифатида катта ёшлилар муҳитининг мавжудлиги; ота-оналар ва фарзандлар ўртасидаги ўзаро муносабатнинг демократик услубга асосланганлиги; болага ўз фикрини билдириш имкониятини бериш; катта ёшлиларнинг фаол, амалий позицияси; болани жуда ёшлигиданоқ меҳнат қилишга ўргантиш; турли тўғарақларга аъзо бўлишини таъминлаш орқали болада ижодкорлик сифатларини изчил ривожлантириб